

Date: 13thFebruary-2025

**KIBERJINOYATCHILIKNING JAMIYAT HAYOTIDAGI YECHIMTALAB
MUAMMOLARI**

Chuboyeva Ozodaxon Quvonchbekovna

NamDU Yuridik fakulteti dotsenti

Ibroximov Muxammadyusuf Sogiqjon o'g'li

NamDU Yuridik fakulteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada bugungi dunyo hamjamiyati mamlakatlarining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy va boshqa bir qator sohalariga tahdid solayotgan hamda zarar yetkazayotgan zamonaviy dunyodagi zamonaviy jinoyatlardan biri hisoblangan kiberjinoymatchilik haqida, shuningdek, mamlakatimizda va turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xorijiy davlatlar tajribalari xususida so'z boradi

Kalit so'zlar: kiberjinoymatchilik, kiberjinoyat, kiberterrorizm, xaker, DDoS, sinergiya, kiberxavfsizlik, kiberjinoymatchilik globalizatsiyasi va boshqalar.

Abstract: This article talks about cybercrime, which is considered one of the modern crimes in the modern world, which threatens and harms the social, political, legal, economic-financial and a number of other areas of the countries of the world community today, as well as about the reforms implemented in our country and in different countries.

Keywords: cyber crime, cyber crime, cyber terrorism, hacker, DDoS, synergy, cyber security, globalization of cyber crime, etc.

Аннотация: В данной статье говорится о киберпреступности, которая считается одним из современных преступлений в современном мире, которое сегодня угрожает и наносит вред социальной, политической, правовой, экономико-финансовой и ряду других сфер стран мирового сообщества. А также о реформах, проводимых в нашей стране и в разных странах.

Ключевые слова: киберпреступность, киберпреступность, кибеттероризм, хакер, DDoS, синергия, кибербезопасность, глобализация киберпреступности и др.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda jahon hamjamiyati rivojlangan sari zamonaviy jinoyatlar kategoriysi ham kengayib bormoqda. Xususan, jamiyat hayotidagi globallashuv ortidan kiberjinoymatchilik ham o'z kiberjinoymatchilik globalizatsiyasiga erishmoqda.

O'zi kiberjinoymatchilik qanday tushuncha?

Kiberjinoyat tushunchasining mazmun va mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, kiberjinoyat-bu tadqiqotchi olimlarning ta'kidlashicha, komputer tizimlari yoki kompyuter tarmoqlari, shuningdek kibermakonga kirishning boshqa vositalari yordamida yoki ular orqali kibermakonda kompyuter tizimlari yoxud vositalari doirasida hamda kompyuter tizimlari va tarmoqlariga qarshi sodir etilgan har

Date: 13thFebruary-2025



qanday jinoyatlar majmuidir. Qisqa qilib, tafakkur qiladigan bo'lsak, kiberjinoyat kompyuterdan foydalangan holda amalga oshiriladigan jinoyatdir. Investitsion va kompyuterlashgan davrda kiberjinoyatchilik avj olmoqda. Har bir tushuncha o'z xususiyatiga ega bo'lgani kabi, kiberjinoyatchilik tushunchasi ham quyidagi xususiyatlarga ega:

- jinoyatni hoxlagan hududda amalga oshirilishi va amalga oshirgan shaxsning kimligi va qayerda ekanligini aniqlash qiyinligi;
- kiberjinoyatchilik jinoyati odatda kech aniqlanadi, shu bois, unga qarshi kurashish samaradorligi pasayadi;
- ushbu jinoyat muayyan shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan qaratiladi;
- tegishli organ xodimlarining kibermuhit haqida malakalarining yetarli emasligi ham qator muammolarni keltirib chiqaradi;
- sodir etiladigan kompyuter jinoyatlari o'z vaqtida e'lon qilinmaydi (tarmoqlardagi kamchiliklar yashirilishi, muassasa ishchanlik obro'sini saqlab qolish va boshqa maqsadlar).
- Kiberjinoyatni tergov qilishning murakkabligi, aksariyat hollarda juda katta zarar ko'riliши va boshqalar.

Shuni ham unutmaslik kerakki, har bir jinoyatning motiv va maqsadi bo'lgani kabi ushbu jinoyatda ham bir qancha o'ziga xos maqsadlari bor. Masalan, qaysidir kimsalar davlat siyosatidagi sirlarni oshkor qilish va davlat fuqarolari o'rtasida turli qo'rquvni uyg'otish yoxud o'zidagi moddiy nafs kabi ehtiyojlarini qondirish maqsadida kibertovlamachilik va kiberfiribgarlik ortidan moddiy manfaat undirishdir.

Ushbu tushunchani tahlil qilish davomida har bir insonda „O'zi kiberxavfsizlik nimaga kerak? “degan savol tug'iladi. So‘z o‘rnida bir misol tariqasida qo‘ylar qo’rasini faraz qilaylik. Agar ushbu jonzotlar himoyalanib panjarali qismga kirgizilmasa albatta yirtqichlar hujumiga uchraydi yoxud armiyasiz davlatni faraz qilib ko'ring. Mudofaa mamlakatning hujumdan saqlovchi qismi bo'lsa, kiberxavfsizlik shaxs, jamiyat va davlatning asosiy ma'lumotlarini xakerlar va kiberjinoyatchilardan saqlovchi tizimdir. Bu muammolarga yechim esa qonunchilikni takomillashtirish va barcha mamlakatlarning, millatning sinergik faoliyati orqali yechim topishdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hozirgi kunda kiberjinoyatchilikka nisbatan mamlakatlarda qonun loyihalari va normativ-huquqiy hujjalari yetarlicha ishlab chiqilmagani va muayyan kamchiliklar tufayli ko'plab yechimalab muammolar soni oshib bormoqda. Boisi, ushbu jinoyat o'z murakkab tuzilishiga va tizimiga ega bo'lishga ulgurdi. Kiberjinoyat kategoriyasining quyidagi turlarini ko'rishimiz mumkin:

- Xakerlik- kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish orqali ularni boshqarish;
- Firibgarlik – ishonchga kirish bilan kishilarning shaxsiy ma'lumotlarni qo'lga kiritish;

Date: 13thFebruary-2025

- 
- Virusli dasturlar- kompyuterning tarmoqlariga va uning tizimiga ziyon yetkazuvchi dasturlar tarqatish;
 - DDoS hujumi- tarmoqlarni ishdan chiqarish maqsadida ularni haddan tashqari yuklab olish;
 - Kiberterrorizm- mamlakatning siyosat bilan bog'liq ma'lumotlari va sirlari hamda uning iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazgan holda kiberhujum uyuştirish.

Moliyaviy ma'lumotlar yoxud bank kartalari ma'lumotlarini o'g'irlash ushbu jinoyat kategoriyasining eng keng tarqalgan kiberjinoyat turlaridan hisoblanib hozirda ko'plab insonlar ushbu jinoyat turining jabrlanuvchilariga aylandi. Biroq insoniyatdagi muammolarga qarshi kurashish instinct xususiyati davlat va jamiyat hayotidan ushbu jinoyatni siqib chiqarishga intilmoqda. Mamlakatlarning siyosiy-huquqiy sohasini izdan chiqarishni maqsad qilgan kiberterrorizm esa dunyo mamlakatlarida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadini yuzaga keltirdi. Avvalo, yurtimizdagi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi islohotlarni tahlil qilsak:

- 17.07.2022-yilda Qonunchilik Palatasi tomonidan 25.02.2022- yilda qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan 17.03.2022- yilda ma'qullangan „O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi hamda ushbu qonun o'zida qonuniylik, shaxs va davlat manfaatlarini himoya qilish, sohaga yagona yondashuv, tizimni yaratishda (davlat xaridlarida) mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik berish, xalqaro hamkorlik uchun ochiqlik kabi prinsiplar asosida kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadini aks ettirdi;

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga o'zgartirishlar kiritildi va bir qator qonunlar asosida kiberxavfsizlik masalalarini hal etishda Davlat xavfsizlik xizmatiga koplab vakolatlar berildi. Bugungi kunda esa har bir mamlakat o'z siyosatini rivojlantirishda ba'zida pragmatik siyosatni ,ba'zida esa xorijiy mamlakatlar tajribasini o'z tizimiga o'ziga mos tarzda moslashtirgani kabi O'zbekiston Respublikasi ham 2024- yil 26-sentyabr kuni Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi Siyosiy byurosi a'zosi, Siyosiy-yuridik komissiyasi kotibi Chen Vensin boshchiligidagi delegatsiyasi bilan kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda amaliy hamkorlikni kengaytirish va sa'y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirishga doir masalar yuzasidan uchrashuv o'tkazdi. Shu o'rinda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish borasida Xitoyning kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatini tahlil qilaylik:

Xitoydagagi siyosat:

- Internetdan foydalanishda hukumat nazorati;
- Ijtimoiy tarmoqdagi ma'lumot doim tahlil nazoratidan o'tkaziladi;
- Chet el tashkilotlari Xitoy fuqarolari ma'lumotini faqat hukumat rozi bo'lsagina oladi;

Date: 13thFebruary-2025

- Tarmoq infratuzilmasi xavfsizlikligi taminlangan;
- Kompaniya va tashkilotlar o'z qo'lidagi shaxsiy ma'lumotlarni saqlashga majbur va ularga qonunni buzsa javobgarlik mavjud;
- Qamoq jazolari;
- Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning mavjudligi (Interpol) va boshqalar.

Xususan O'zbekiston Respublikasi, qolaversa ko'plab mamlakatlar ham shu kabi xususiyatlarni o'zida mujassam etib murakkab tizimni yaratmoqda. Ammo bugun hech qaysi mamlakat mustaqil ravishda o'zi bu illatga qarshilik ko'rsata olmayapti. Lekin xalqaro ushbu jinoyatga qarshi kurashishni maqsad qilgan subyektlar kiberjinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish mexanizmini yaratish eng samarali usul deb bilgan subyektlar sinergik hamkorlik asosida bir necha qonunlarni qabul qilish asosida ijobiyl natijalarga erishdi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bugungi raqamli texnologiyalar asridagi zamonaviy jinoyatlarni oldini olish har millatning maqsadidir. O'yaymanki, insonlarda kiberjinoyatchilikka qarshi immunitet hosil qilish, shaxslar, tashkilotlar va davlat xodimlari uchun muvaqqat bo'limgan ta'lim treninglarini olib borish, kiberjinoyatlar uchun qatiy jazo choralarini joriy qilish, innovatsion texnik tizim orqali tarmoqlardagi har bir ma'lumot uchun murakkab va ishonchli xavfsizlik tizimidan foydalanish va ma'lumotlarni tahlil qilish, xalqaro hamjamiyatda millat, davlat, jamiyat sineryiyasi asosida qonunchilik tizimini takomillashtirishga qaratilgan sa'y harakatlar kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish borasida oz bo'lsada natijadorlik xususiyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Niyozova Salomat Saparovna „KIBERJINOYATCHILIK“, O'quv qo'llanma, TOSHKENT, TDYU nashriyoti -2024, 136-b;
2. Н.С.Салаев, Р.Н.Рўзиев, „КИБЕРЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШГА ОИД МИЛЛИЙ ВА ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР“. Масъул мухаррир: ю.ф.д, проф, Р.А.Зуфаров. Тошкент. ТДЮУ-2018, 139- бет.
3. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
4. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
5. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma'naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112

Date: 13thFebruary-2025

6.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135 .

7.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ҲУҚУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar